



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2024 yil 15 may

№ 1900

O'zbekiston Respublikasi ayrim sudlariga sudyalarni tayinlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 69-72-moddalari va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

Aliqulov Bahodir Arslanovich – sudyalik vakolati muddati davriga Navoiy viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Navoiy shahar sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Samarqand viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Almamatov Temur Kuylibayevich – sudyalik vakolati muddati davriga Samarqand viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin;

Doniyorov Ilyos Abdujabborovich – sudyalik vakolati muddati davriga Samarqand viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Kattaqo'rg'on tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin;

Polvanov Bahodir Xusainovich – sudyalik lavozimida bo'lishning muddatsiz davriga, shundan besh yil muddatga Samarqand viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Oqdaryo tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin;

Valiyev Dilmurod Ubaydullayevich – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha Sirg'ali tuman sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent shahar sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimidan ozod qilinsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov